

Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi pedagog kadrlarni qayta tayyorlash va malakasini oshirish instituti tayanch doktoranti Latipova Gavharoy Shavkatovnaning "**Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari**" mavzusida falsafa fanlari doktori (Phd) ilmiy darajasini olish uchun yozgan maqolasiga

### **Taqriz**

Globalashuv davrida inson omili boshqaruvchi, innovatsion va ijodiy yondashuv bilan ajralib turadigan sub'ektga aylanib bormoqda. Yuqoridagi masalalarni o'rganishga qaratilgan ko'plab ilmiy tadqiqotlarda asosiy e'tibor ta'limning istalgan bosqichida, ayniqsa, oliy ta'limdan keyingi ta'lim sifatida qaraladigan malaka oshirish tizimida tinglovchilarning shaxsiy-kreativligini yuzaga chiqarishga qaratilgan bo'lib, asosan malaka oshirish kursi tinglovchilarining kreativ salohiyati ularning kasbiy va shaxsiy fazilatlarini shakllantirishdagi asosiy masala sifatida qaraladi. Malaka oshirish tizimining o'quv jarayonida tinglovchilar o'rtasida mulohaza yuritish ko'nikmalarini rivojlantirish ularning o'z kasbiy faoliyatining subyekt sifatida rivojlanishining eng muhim sharti hisoblanadi. Ushbu faoliyatga tayyorligini rivojlantirish esa, o'z-o'zini rivojlantirishning yetakchi omilidir. Bu masalaga doir ular malaka oshirish jarayonida duch keladigan bir qator obyektiv va subyektiv muammolar, kasbga oid konfliktli vaziyatlarning kelib chiqish sabablari va ularning yechimini topish usullari ko'rib chiqiladi. Tavsiyalar sifatida mahalliy va xorijiy pedagoglar tomonidan olib borilgan ilmiy tadqiqotlardan foydalangan holda bir nechta samarali usullar tavsiya sifatida taqdim etilgan.

Bundan tashqari, tinglovchilarni mashg'ulotlarga jalb qilishda diqqatni jamlash, kattalar uchun qiziqarli va e'tibor qaratadigan online roliklar, didaktik o'yinlar va ularning shaxs tafakkuriga ta'sir qiladigan jihatlarini yoritib berishga harakat qilgan. Hozirda tinglovchilar ijtimoiy-gumanitar fanlar doirasida faqat ma'ruza yoki hikoya metodlaridan foydalanib, yetarli darajada qo'yilgan maqsadga erisha olmasligi, ularning qiziqishlari ijtimoiy tarmoq uchun ortib

borayotganligini hisobga olib, dars jarayonida ham ulardan foydalanish mavzuga qiziqтира olishda eng samarali usul sifatida tavsiyalar va misollar berilgan. Ushbu metodlarning afzallik tomonlari va dastlab kimlar tomonidan tavsiyalar berilganligi, ularni amalda qanday qo'llash, tinglovchilar qabul qilish darajasi, yosh ko'rsatkichlariga mosligi, ochiq saytlardagi didaktik o'yinlarning mentalitetga mos jihatlari, insonlar ongiga salbiy ta'sir qiladigan go'yalardan yiroq bo'lishi kerakligi, dars jarayonida ulardan foydalanishda me'yoriy qoidalar to'g'risida keltirib o'tgan. Maqolaga uchta tilda annotatsiya berilgan. Annotatsiyada maqolada yoritilgan masalalarning qisqacha tavsifi o'z aksini topgan.

Maqolaning kirish qismida muammoning dolzarbligi va zaruriyati ochib berilgan. Nazariy ma'lumotlarni bayon etishda muallif mavjud tadqiqotlar natijalari tahliliga alohida e'tibor qaratgan. Maqolaning metodologik qismida tinglovchilarda kreativ salohiyatni rivojlantirish muammosini tadqiq etishning ilmiy bilish metodlari va nazariyalariga e'tibor qaratilgan. Xulosa qismida esa, mualliflik nuqtai nazarlari va amaliy tajribalarga tayangan holda umumiy fikrlarga kelingan hamda takliflar ilgari surilgan. Xulosa qilib aytganda, maqola qo'yilgan talablarga javob beradi. Tadqiqotchi Latipova Gavhar Shavkatovnaning "Malaka oshirish tizimi tinglovchilarning shaxsiy-kreativ salohiyatini rivojlantirishning metodologik asoslari" maqolasi mavzu jihatdan to'g'ri tanlangan va nashr uchun tavsiya etaman.

Taqrizchi:



**p.f.f.d. N.K.Haqnazarova**